

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK VA METODIK IMKONIYATLARI

Qosimova Sevara Akbarovna

Alfraganus universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning didaktik-metodik imkoniyatlari ochib berilgan, an'anaviy ta'lim paradigmasi bilan integratsiyalash, mavjud mexanizmlarni yanada takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, didaktik va metodik imkoniyatlar, individual yondashuv, mexanizm, takomillashtirish, differensial yondashuv, elektron platformalar.

Abstract. In the article, the didactic-methodical possibilities of effective use of innovative pedagogical technologies in the process of teaching mother tongue in modern general education schools were revealed, methodological recommendations on integration with the traditional educational paradigm, and further improvement of existing mechanisms were analyzed.

Keywords: innovative education, didactic and methodological possibilities, individual approach, mechanism, improvement, differential approach, electronic platforms.

Аннотация. В статье раскрываются дидактико-методические возможности эффективного использования инновационных педагогических технологий в процессе обучения родному языку в современных общеобразовательных школах, интеграции с традиционной образовательной парадигмой, анализируются методические рекомендации по дальнейшему совершенствованию существующих механизмов.

Ключевые слова: инновационное образование, дидактические и методические возможности, индивидуальный подход, механизм, совершенствование, дифференцированный подход, электронные площадки.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish maqsadida darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda o'qituvchining kommunikativ sifatlaridan tashqari interaktiv materiallardan foydalanishi o'quvchini o'ziga yanada jalb eta oladi. Bu ham o'quvchini fikrlash qobiliyatini yanada kengaytirishiga sabab bo'la oladi. Aynan shuning uchun ham ona tili fanini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda dars

o‘tilishi kelajak yoshlari uchun ko‘plab eshiklarni ochadi. Xususan ushbu jarayon orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual yondasha olishi, dars holatini jonlantirishi, ijodkorlikni oshirishi bilim saviyasini yanada sifatli qila oladi. Keling, ushbu mavzuni to‘liq yoritishdan oldin innovatsion ta‘lim, didaktik va metodik imkoniyatlar kabi tushunchalarni tahlil qilsak.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish asoslari. Bugungi kungacha ta‘lim sohasida faqat tayyor bilimlarni egallash o‘rgatilib kelingan bo‘lsa, zamon rivojlangani sari faqat o‘qituvchi izlanishi emas, balki o‘quvchi ham ijodiy fikrlab izlanishi, mustaqil o‘rganishi talab etila boshlandi. Aynan shu maqsadda innovatsion ta‘lim tushunchasi kirib keldi. Innovatsiya o‘zi nima? Innovatsion ta‘lim o‘qitish samaradorligini qanday oshiradi? Keling, shu savollarga birma bir javob bersak. Innovatsiya (inglizcha innovatsion – yangilik kiritish, ixtiro) – ta‘lim oluvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘limdir. Innovatsion ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta‘lim texnologiyalari yoki ta‘lim innovatsiyalari deb nomlanadi.¹ Bugungi kunda ko‘plab maktablarda an‘anaviy ta‘limdan ko‘ra innovatsion ta‘lim afzal ko‘rishning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz? Keling, bir nechta sabablarni keltirsak. Birinchisi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga va ijodkorligini oshirishga yordam beradi. Ikkinchisi, ta‘lim jarayonida virtual, video, audio va multimediali materiallar orqali murakkab grammatik qoidalar oson tushuntiriladi va aynan shu sababli vaqt tejali, o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual ishlay oladi. Bu bilan esa o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar sonini ancha kamayadi. Uchinchidan, elektron resurslar orqali yaratilgan slaydlar dars davomida o‘quvchini befarq qoldirmay, doimiy ravishda bilimga qiziqishini orttirib boradi.

Endi esa didaktik vositalarni ta‘limdagi o‘rni haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Aynan ta‘lim sohasidagi didaktik vositalarga bugungi kunda ko‘p vaqtlarda hayotimizda uchraydigan, bizga tanish bo‘lgan elektron kitoblar, televideniya kabi texnologik vositalarni misol keltirishimiz mumkin. O‘quv jarayonini jonlantirish, ijodiy fikrlashni oshirishga ushbu raqamli vositalar joriy qilinganligi o‘quv matnlarini yanada boyitdi desak adashmagan bo‘lamiz. Elektron resurslardan keng foydalanishning juda ko‘plab samarali foydalari bor. Masalan:

- Animatsiyali, virtual va elektron fayllar orqali murakkab mavzularni ham oson tushunish samaradorligini oshiradi.

- Onlayn ta‘lim platformalari ya‘ni Google classroom orqali o‘quvchi bilan darsdan tashqari masofaviy ishlash yoki uyga vazifalarni elektron tarzda jo‘natish va ularni munosib baholash kabi platformalar o‘rganuvchilarning bilim darajasini yanada oshiradi.

• uzbekistan360.uz sayti orqali o'quvchilarni xonada o'tirgan holda O'zbekistonning turli go'shalarida virtual sayohat qildirish ham o'quvchi tasavvurini yanada boyitadi.

• Ushbu texnologiyalardan foydalanishning yana bir afzalligi shundaki, unda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladi.

• Darsda qanday metodik imkoniyatlardan foydalanishimiz mumkin? Avvalo biz an'anaviy ta'limni ham unutmasligimiz lozim. Ya'ni an'anaviy ta'lim bilan raqamli ta'limni uyg'unlashtira olishimiz ham bir mahorat aslida. Masalan, doimgi "Baliq skleti", "Savatcha", "Klaster usuli" kabi qog'oz metodlardan emas, quizlet.com, kahoot.it, jeopardylabs.com² kabi saytlar va organayzerlardan foydalanish ona tili darsida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va avtomatik tarzda e'tiborini jalb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarni Google random orqali tanlab, faol qatnashishga chorlash ham barchani birdek faollikka chorlaydi. Ya'ni faqat faol o'quvchilar emas balki o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ham darsga qatnasha boshlashadi. Bu orqali biz nimaga erishamiz? Tadqiqotlarga qaraganda Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha 50 ming bola 15 foizi an'anaviy ta'lim jarayonida yaxshi natijaga erishgan bo'lsa, innovatsion ta'limda bu holat ancha yuqori natijani bergan.³

Innovatsion ta'lim jarayonida o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar. Ta'lim berish jarayonida pedagogdan faqatgina darslik, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirganligi talab qilinmaydi. Qo'shimda tarzda dars jarayonidagi motiv, kayfiyat ham muhim ro'l o'ynaydi. Ya'ni o'quvchini faollikka, tashabbuskorlikka, mushoxadaga, mehnat qilishga undash jarayonida do'stona muhit yarata olishi va munosib taqdirlay olishi lozim. Masalan, faraz qilaylik sinfga yangi o'quvchi qo'shildi. U hali sinfdoshlari bilan yaxshi tanishmagan va suhbat qurmagan deylik. Aynan shu vaziyatda pedagog o'z mahorati orqali sinfga yangi o'quvchini muloqotga chorlashi mumkin. Bunday holatlarda guruh-guruh bo'lib ishlash faqatgina yangi o'quvchida ko'nikma hosil qilmaydi balki sinfni yanada ahil bo'lishiga, kelishib ishlashiga ham yordam beradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi:

- Oddiy o'quvchini "mutolaa" qiladigan;
- Mutolaa qiladigan o'quvchini "tushunadigan";
- Tushunadigan o'quvchini "tahlil qila oladigan";
- Tahlil qila oladigan o'qituvchini "xulosa chiqaradigan" o'quvchiga aylantira olishi kerak;⁴

Ta'limning sifati va samaradorligi faqat o'qituvchining bergan bilimlari bilan emas, balki o'quvchining qabul qilgan ko'nikmalari bilan ham o'lchaniladi. Bu holatda esa o'qituvchi o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lib turishi lozim

An'anaviy darsdan ko'ra interfaol darsning foydalari. Nima uchun biz interfaol darslarni afzal ko'ryapmiz? Bularga bir nechta sabablarni kiritsak. Masalan:

- Darsdan tashqari o'quvchi bilan masofaviy va qulay ishlay olish;
- O'qituvchini tinglashdan ko'ra fikrni erkin bayon etish va xulosalash imkoniyatining mavjudligi;
- Yorqin va chiroyli dizaynga ega slaydlar va multimediali fayllar darsga bee'tibor o'quvchini ham jalb eta olishi;
- Darsdan tashqari o'quvchini mustaqil izlanishga chorlash;
- Sog'lom raqobatda bo'lishi;
- Texnologiyalar bilan ishlash jarayonida chet tillarini ham o'rganib borish;

Hozirda bizga kirib kelgan asosiy texnologiyalarning tili rus va ingliz tilida bo'lgani uchun ham o'quvchining bilimlarini yanada oshadi. Masalan, mustaqil izlanayotgan o'quvchi "edit", "copy", "done" kabi ingliz tilidagi so'zlarni bilmasa lug'atlar orqali izlanib bularning tarjimasi "tahrirlamoq", "nusxa ko'chirmoq", "tayyor" ekanligini biladi. Bu bilan esa u ham izlanyapti, ham yangi tilni o'rganish uchun kichik qadamlar qo'yayapti.

Xulosa. O'qituvchi ham bir san'atkor demakdir. Uning asosiy maqsadi esa dars soatini to'liq o'tish emas, balki o'rganuvchilarga sodda tilda sifatli ta'lim berishdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda juda ko'plab yangi islohatlar amalga oshirilmoqda, zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Zero bugungi kunda fan-texnika rivojlanib borayotgan bir paytda ta'limga yangicha yondashuvning kirib kelishi ham talab darajasidadir. Aynan shuning uchun biz yosh avlodga aniq, tez, zamonaviy va sifatli ta'lim berishimiz uchun ham innovatsion texnikalarni qo'llashimiz, ularni nafaqat dars sifatini oshirishda balki o'rganish va yodda saqlashdagi yordami uchun raqamli ta'lim bilan integratsiya qilishimiz darkor. Shundagina O'zbekiston ta'limi ham sifatli ta'lim beruvchi TOP rivojlagan davlatlar qatoriga qo'shilishi, ko'plab yetuk kadrlarni yetishtirib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismatullayeva N. Raqamli ta'lim resurslaridan ona tili darslarida foydalanish. T.: "Fan", 2022.
2. G'ofurov A. Ta'limda an'ana va zamonaviylik. T.: "Ma'naviyat", 2021.
3. Ishmuhammedov R., Abdullayev, A. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Fan va texnologiya", 2020.
4. Yo'ldoshev B., Tojiyev, T. Ona tili va adabiyot o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2018.
5. Jumaniyazova Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2015.
6. Fayzullayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: "Noshir", 2019.

7. Qosimov H., Usmonboyeva, M. Interaktiv ta'lim texnologiyalari. T.: "Ilm-ziyo", 2017.
8. To'rayev S. Ona tili darslarida an'anaviy va interaktiv metodlarning o'zaro bog'liqligi. T.: "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2019, 2(5), 45-52.
9. Rahmonova G. Boshlang'ich sinflarda orfografik ko'nikmalarni shakllantirish. T.: "Ilm-ziyo", 2016.
10. Преображенская Н.А. Информационные технологии в образовании. – М.: Академия, 2010.
11. Роберт И.В. Новые информационные технологии в образовании: учебное пособие для студентов педагогических вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 2008.